

MULTUMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISH ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI O'QITISH TIZIMI

Annotasiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limni samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalarning interfaol usullaridan foydalanish, har bir darsning samaradorligini oshirishda interfaol multimedia vositalaridan foydalanishning o'rni, usullari va samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: multimedia, multimedia vositalari, ta'lim tizimida interfaol multimedia vositalaridan foydalanish o'rni va samaradorligi.

СИСТЕМА ОБУЧЕНИЯ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация. В статье описано использование интерактивных методов инновационных технологий учителями начальных классов в эффективной организации обучения, роль, методы и эффективность использования интерактивных мультимедийных средств в повышении эффективности каждого урока.

SYSTEM FOR THE EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH THE USE OF MULTUMEDIAL MEANS

Annotatsion. This article describes the use of interactive methods of innovative technologies by primary school teachers in the effective organization of education, the role, methods and effectiveness of using interactive multimedia tools in ancreasing the effectiveness of each lesson.

Kirish. Bugungi kunda barcha sohani shu bilan birga ta'lim sohasini ham kompyuter va axborot-texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Jamiyatimiz rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri zamonaviy axborot-texnologiyalaridir. Hozirgi axboratlashgan jamiyatda multimediyali vositalari muhim ro'l o'ynaydi. Ilg'or pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda foydalanilmoqda. Zamonamizda barcha sohalaridagi ilm ulashish uchun seminarlar, uchrashuvlar, treninglar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda turli kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Ma'lumotlar tushunarli, samarali, qiziqarli, esda qolarli va mazmunga boy bo'lishi uchun multimedia vositalaridan foydalaniladi.

Asosiy qism. Boshlang'ich ta'lim tizimida asosiy e'tibor ta'lim sifatiga qaratilishi zarur. Buni amalga oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini, ya'ni multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Mediata'lim pedagogikada yangi yo'nalish bo'lib, kommunikatsiya (aloqa) ko'pchilik aloqa kommunikatsiyalarini o'quvchilar tomonidan o'rganishni e'tiborga oladi. Ya'ni: matbuot, televidenie, radio va boshqalar. Ta'limda mediata'lim vositalari sifatida axborot muhiti elementlari: darslik, ko'pchilik axborot vositalari (nashriyotlar, radio, televideniya), video, kompyuter o'qitish dasturlari va o'yinlar, multimedia, Internet axborot setlari (turkumlari) foydalaniladi

Media (lotincha, tesia) – axborot tashuvchi vositadir. Multimedialli video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Multimedia tushunchasi hayotimizga 90- yillarning boshlarida kirib keladi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izoxlamodalar. Ularning fikrlarini

umumlashtirib multimediyaga shunday ta'rif berish mumkin: multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Multimediali texnologiya bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodir: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz. Multimedyaning eng muhim xususiyati interfaollik-axborot muhitida ishlash jarayonida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirlik hisoblanadi. Interfaol multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Multimedia vositalaridan foydalanishning ta'limdagi ahamiyati Jonassen va Papert kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ular kompyuter texnologiyalari va multimedia vositalarining o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'l keladigan boshqa mahoratlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. O'yin asosidagi ta'lim metodlarining samaradorligi haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Bruner, Piaget, va Vygotsky kabi olimlarning ishlari bu sohadagi asosiy nazariyalar va metodlarni shakllantiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning o'zaro hamkorligini, ijodiy fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Multimedia - kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish jarayonida o'qituvchi:

- o'quv materiallarini ko'rgazmali tarzda taqdim etadi;
- yangi materiallarni tezlik bilan yetkazadi;
- axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar yordamida boshqara oladi;

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini qiziqarli, asosiy va zarur foydali bilimlarga boy jarayon sifatida o'tish ishlari sezilarli darajada e'tiborni torta oldi. Bu sinflarda multimedia vositalarining o'rni va foydasini ko'rib chiqish juda muhimdir.

Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 %gacha vaqtni tejashmumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75% ortadi.

Zamonamizda o'quvchilarni yangiliklar, g'aroyibotlar, ilg'or xalqaro tajribalar qiziqtiradi. Zamon bilan birgalikda o'quvchi yoshlarning ongi, fikrlash tezligi ortib bormoqda. Ayni damda yoshlarni tarqatma materiallar emas, kompyuterda bajariladigan, animatsiyalarga boy mashg'ulotlar ko'proq qiziqtiradi. Zamon zayli degandek, ayni vaqtda boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan ko'p jihatlarni o'zida ifodalovchi "Multimediali darslar", "Taqdimotlar asosida o'tiladigan darslar" va " Seminar dars"laridan foydalanish tavsiya etiladi. Seminar dars o'quvchilarni dars davomida faol qatnashishlariga, o'zlari ustida ishlashga va dars davomida bahsmunozaralar bilan o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini qiziqarli, asosiy va zarur foydali bilimlarga boy jarayon sifatida o'tish ishlari sezilarli darajada e'tiborni torta oldi. Bu sinflarda multimedia vositalarining o'rni va foydasini ko'rib chiqish juda muhimdir.[4] Quyidagi misollar orqali multimedia vositalarining sinf darslaridagi o'rni haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish mumkin:

1. Audio va videodarsliklar: Ushbu darsliklar ma'lumotlarni ko'rish va ko'rsatish masalalari, ularni idrok etish va analiz-sintez qiladigan, ilg'orlashishga undovchi, maqsadli va aniq jarayonlarni yodda tutish uchun ham yordam beradi. Bu turlar, o'quvchilarning ma'lumot olish va ularni samarali yodda saqlash tezligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Audio va videodarsliklar tarix, ona tili, matematika, ingliz tili va boshqa fanlarni qamrab olishi va boshqa ko'plab mavzulardan ham iborat bo'lishi mumkin.

2. Interaktiv darsliklar: ular interaktiv materiallar va mashqlarning asosiy qatlami bo'lib, har tomonlama ilg'orlashishga, ularni qo'llash orqali o'quvchilar bilan o'zaro savol-javoblar

doirasida turli interaktiv metodlar orqali mantiqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu darsliklar, o'quvchilar o'zlarining shaxsiy jihat va fazilatlarini rivojlantirishida juda kuchli vosita hisoblanishi mumkin. Ular o'yinlar, savollar, testlar va boshqa mashg'ulotlardan iborat bo'ladi.

3. Saytlar: Saytlar, mavzu va fanlar bilan bog'liq turli ko'rinishlar va formatlarga ega bo'lib, bir va ko'p mavzularda ko'proq bilim olish, amalda qo'llash va ko'nikmalar yaratish imkoniyatini tuhfa etadi. O'qishni ko'rsatish masalalari, tushuncha, misollar va boshqa mavzularni shuhratli yechimlarga aylantirish va ularga ko'rsatish qaror qilish oqibatida, sinflarda va boshqalarda saytlarning maqsadi ko'pincha tajribaviy bilim olishdir.

4. O'yinlar: O'yinlar fikrlararo almashinish va ko'rishni, shaxsiy qarashlarga ega bo'lishni, miya faoliyatini yaxshilashni amalga oshirishda juda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Milliy O'yinlaridagi kabi turli o'yinlar, tarix, ona tili, matematika fanlari va ulardagi boshqa turli mavzulardan iborat bo'lishi mumkin.

Har qanday multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflardagi o'quvchi zavqlari, o'quvchilar ko'nikmalarida yaratilgan odatlar va sinfning maqsadi asosida tanlangan vaqtlarda ishlatiladi. Xuddi shu tarzda, o'quvchilarni ko'proq qiziqishlariga yoki talablarga rioya etishlariga, sinflarda ko'tarilish va sinfdan chiqarilishidagi yondashuvlarida muammolarga duch kelmaslikka olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari darslarini tashkil qilishda multimediya vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning amaliy ahamiyatini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olishga qiziqtirish;
- 2) o'quv materiallarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos ravishda turli vositalar asosida tayyorlash;
- 3) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qituvchi kitobi uchun yangi metodik tavsiyalarni taqdim etish;
- 4) boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayonini yangilab borish;
- 5) o'qitish jarayoniga xorijiy mamlaktlarning tajribalarini joriy etish;
- 6) mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual tajribalarini ommalashtirish;
- 7) boshlang'ich ta'lim sifatini raqamli texnologiyalar asosida yuksaltirish.

Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonida multimediya vositalaridan foydalanish muhim. Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

1. Rangli grafika, animatsiya, tovush, gipermatnlardan foydalanishga imkon beradi; Doimiy yangilash imkonini beradi;
2. Nashr qilish va ko'paytirish uchun kam xarajatlarga ega;
3. Viktorinalar yoki kabi interaktiv veb-elementlarni joylashtirish imkonini beradi ish kitobi;
4. Kotirovka qilish uchun qismlarni nusxalash va o'tkazish imkoniyatini beradi; Giperhavolalarning ko'pligi tufayli materialning o'tishining chiziqli bo'lmasligiga imkon beradi;
5. Elektron kutubxonalarda yoki o'quv saytlarida qo'shimcha adabiyotlarga giperhavolalar o'rnatadi.
6. Multimedia sizga og'zaki va vizual-sensorli ma'lumotlarni birlashtirishga imkon beradi, bu o'quvchilarning motivatsiyasiga, o'rganish uchun haqiqiy muhitni yaratishga yordam beradi.

Ta'limda multimedia vositalaridan foydalanishning afzalligi bilan bir qatorda kamchiliklari ham ko'zga tashlanadi. Dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishdagi salbiy taraflariga quyidagilar kiradi:

- diqqatni bo'linishi;
- topshiriqlarni bir xil tushuna olmaslik;
- topshiriqlarning hajmi kattaligi;
- texnika vositalarini sozlashdagi nosozliklar;

➤ axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar va hk.

Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishdagi odatiy jarayon ham o'zgaradi. Chunki o'quvchilarimiz kompyuter texnologiyalaridan foydalanadi va uni "aldash" qiyin, o'qituvchi faqat kerak bo'lgandagian qo'llab-quvvatlay oladi xalos. Har bir o'quvchi o'zining natijasini adolatni oladi va guvohi ham bo'ladi. Ta'limda multimedia texnologiyalarini qo'llash quyidagilarga bo'linadi:

- umumiy yoki individual foydalanish;
- professionallar yoki oddiy iste'molchi uchun;
- interaktiv va interaktiv bo'lmagan foydalanish uchun;
- ma'lumotdan mahalliy yoki masofadan foydalanish.

Multimediali o'qitish texnologiyalari o'quv jarayonini boyitadi, o'quv ma'lumotlarini idrok etish jarayonida o'quvchining aksariyat hissiy komponentlarini jalb qilgan holda o'rganishni yanada samarali qiladi.

Olimlarning ta'lim tizimidagi samaradorlikni oshirish borasidagi bir necha yillik izlanishlarining natijasiga ko'ra, o'qiyuvchilarning pedagogik strategiyalari ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish o'qish, o'zlashtirish faoliyatining asosiy qismidir. Buni amalga oshirishdagi asosiy masala, o'qituvchilar nafaqat imkoniyatlarga ishonishda balki, o'quvchilarning bilimni yaxshilash uchun ushbu vositalardan ularni o'zlari ham hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Imkoniyatlar ham o'quvchilarning ta'lim ehtiyojlariga mos kelishi, ularni o'quvchilarimiz idrok eta olishlari va ulardan foydalana olishlari uchun ta'lim vositasi bo'la olishi lozim. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish orqali ta'limdagi rollar ham o'zgaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarimizning faolligi ancha oshadi. Ta'lim va o'qituvchilarning roli boshqaruv va qatni nazorat qilishdan iborat bo'ladi.

Multimedia kompyuter texnologiyalari o'qituvchiga o'rganilayotgan materialni chuqurroq va ongli ravishda o'zlashtirishga hissa qo'shadigan turli xil vositalarni tezda birlashtirish, dars vaqtini tejash va uni ma'lumot bilan to'ldirish imkoniyatini beradi. Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'p tarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Xulosa. Axborotlashgan zamonda har bir jabhada texnologiyalarning o'rni beqiyos. Shu jumladan ta'lim tizimida ham. Multimedia vositalari zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ajralmas qismi bo'lib, hayotimizning bir bo'lagiga aylangan. Multimedia texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim sifatini hamda ta'lim oluvchining o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limda axborot-texnologiyalarini, multimediya vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda mehnatga qiziqish, faolligi oshib boradi, fikrlash qobiliyati ham yaxshilasha boradi, mantiqiy tafakkuri ham rivojlanadi, turli muammolarga yechim topa olish qobiliyati ham rivojlanadi. Darslarda multimediya vositalaridan foydalanish vaqtini tejash va hammaga bir hil o'quv materiallarini taqdim etishni faollashtiradi, guruhda o'quvchilar individual tarzda topshiriqlarni bajarish va muammolarga mustaqil yechum topish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Multimedia vositalaridan dars davomida foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni ham samarali bo'ladi va darslarimiz ham doimiy ko'rgazmalar orqali tashkillashtiriladi. O'quvchilar uchun multimedia vositalaridan foydalanish, elektron mahsulotlar va media mavzulariga mutanosib bo'lishi zarur. Shuningdek, multimedia vositalari boshlang'ich sinflarni yetakchi turdagi konsepsiyalar va tushunchalar bilan tutishga mumkinligini beradi, bu esa o'quvchilarning ishonchini oshiradi. Multimedia vositalaridan foydalanish orqali boshlang'ich sinflarning darsini tashkil etish orqali o'quvchilarning ma'lumot va axborotlarni qabul qilish sifati va tezligini samarali tarzda oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulyamov S.S., Ayurov R.X. Миллий иқтисодиётда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг стратегик аҳамияти. Тошкент, www.uza.uz, узмаа – Ўзбекистон Миллий Ахборот Агентлиги «Электрон журнали», узмаа Ахборотномаси, 2019 йил октябрь;

2. Burlakov M.V. Illustrator CS3. Elektron ma'lumotnoma bilan o'z-o'zini o'qitish bo'yicha qo'llanma. - "Kudits-Press", 2008. -336 b.

3. Jabborova O., Saparbayeva D. Boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi. – Chirchiq, 2023

4. Maqsudov.U.B, Q.Eraliyev, Y.L., & Qosimova,G. (2022). TA'LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 973-980.

5. Maqsudov, U., & Eraliyev, Y. (2022). PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68-73.